



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**“ADABIY TA’LIM METODOLOGIYASI:
XALQARO TAJRIBA VA ILMIY HAMKORLIK”
mavzusidagi professor Hamidulla Boltaboyev
tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

MATERIALLARI

2-kitob

**Toshkent
2024-yil 30-sentabr**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
Michigan davlat universiteti (AQSH)
Anqara Boshkent universiteti Alisher Navoiy tadqiqot markazi (Turkiya)
Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti
Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot instituti
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi**

**“ADABIY TA’LIM METODOLOGIYASI: XALQARO
TAJRIBA VA ILMIY HAMKORLIK”
mavzusidagi Professor Hamidulla Boltaboyev
tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

MATERIALLARI

2-kitob

**Toshkent
“MUMTOZ SO‘Z”
2024**

ОБЩЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ПОЭТИЧЕСКОГО ОБРАЗА В УЗБЕКСКОЙ ДЖАДИДСКОЙ ПОЭЗИИ

Аннотация

Вопрос о поэтическом образе и его выражении в узбекской поэзии является одной из наиболее актуальных проблем нашего литературоведения. Этому актуальному вопросу посвящена данная статья, в которой исследуются принципы обновления поэтической образности в современной узбекской поэзии.

Автор прослеживает поэтические образы в узбекской поэзии и исследует, как им придается новый смысл и содержание в произведениях современных поэтов. Такие образы, как «сад», «цветок», «соловей», «темная ночь», «путь», «дарвеш-юльчи» которые широко используются в поэзии современных узбекских поэтов.

Как известно, в двадцатые годы XX века художественная литература стала ближе к реальной жизни. Образность в поэзии этого периода была направлена на выражение воспитательных, нравственных и общественно-политических проблем, таких как свобода Родины и воля нации. В лирической поэзии гири для пальцев используются чаще, чем традиционные гири аруз. Поэтические образы и символы обновились и в его современной поэзии, язык которой был прост, а тон стал более популярным.

В статье отмечается, что лучшие традиции нашей классической литературы послужили основой развития современной узбекской поэзии. В качестве примера исследована художественная интерпретация персонажей «любовный» и «любимый» в поэзии Чулпона.

Исследователь поясняет, что обращение к классическим литературным традициям в современной поэзии связано со многими факторами, такими как мировоззрение творца, среда, в которой он вырос, природа его таланта.

Исследователь высказывает вывод о том, что образ возлюбленного в лирике Чулпана находится в пропорциональном соотношении с такими поэтическими символами, как «соловей», «раб», «сердце», «душа», «дерево» и часто выражает «Я» поэта.

В статье рассмотрены внешние и внутренние аспекты многих стихотворений таких поэтов, как Чулпон, Фитрат, сделаны некоторые обобщения.

Ключевые слова: *Поэзия, символ, интерпретация, чувство и переживание, лирический герой, искусство, внутреннее содержание.*

Badiiy ijodning asosini obrazli fikrlash tashkil etib, adabiyotshunoslikda obrazga turli xil munosabat bildirilgan. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov badiiy obrazni: "...borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksi, tamoman yangi mavjudlik – badiiy borliq" [Quronov D. 2004:11] ekaniga diqqat qaratadi. Obrazlar namoyon bo'lishida: a) konkretlik; b) individuallashtirilgan umumlashma ekanlik; v) ratsional va emotsional birlik ekani; g) metaforiklik; d) assotsiativlik muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Adabiyotshunos Erkin Xudoyberdiev fikricha obrazlar quyidagi ikkita muhim xususiyati bilan ajralib turadi: a) kitobxonga hissiy ta'sir qilishni ta'minlovchi jonli, aniqlik va o'ziga xos belgilarga boylik; b) umumiy (tipik) belgilarni mujassamlashtirishi." [Xudoyberdiev E., 2008: 40]

Binobarin, obrazli tafakkur hosilasi bo'lgan badiiy adabiyot inson his-tuyg'ulari, ong-tafakkuri va ruhini poklash, qalbini yuksaltirish orqali umummillat taqdiriga ham kuchli ta'sir etuvchi vositadir.

Darhaqiqat, XX asrning 20-yillariga kelib badiiy adabiyot real hayotga yaqinlashdi. Janrlar tarkibi yangilandi va g'oyaviy mazmuni, obrazlar olami mohiyat etibori bilan Vatan ozodligi, millat erki hamda uning ruhini uyg'otish singari ma'rifiy-axloqiy va ijtimoiy-siyosiy muammolar badiiy

yechimini topishga yo'naltirildi. She'riyat xalq jonli hayoti va turmush tarziga yaqinlashgani bois, an'anaviy aruz vaznidan ko'ra, barmoq vazniga ko'proq murojaat etildi. Uning tili sodda, ohangi esa, tobora xalqchil bo'la bordi. Demak, o'zgarish va yangilanishlar "hamd" va "na't"lar mazmuni, vazn, obrazlar olami, shakl (janr), sarlavhalanish (kompozitsiya) kabi turli sathlarda sodir bo'ldi. Adabiyotshunos Nodira Afoqova ta'kidlaganiday: "*Jadid adabiyoti – an'ana va yangilik kesishgan chorrahada maydonga kelgan adabiyotdir... eskilik va yangilik aynan jadid adiblari ijodida – she'riyatda ro'baro' keldi.*" [Afoqova N. 2006: 9].

Jadid shoirlarining shiddat bilan o'zgarayotgan real hayot hodisalariga bo'lgan hozirjavob munosabati turg'un an'analar, xususan poetik obraz va ramzlar qo'llashni yangiladi, XX asr boshlari o'zbek she'riyatini boshqa o'zanga burib yubordi. Garchand "... *an'analarni birgina ijodkor ham boshqa o'zanlarga burib yuborishga qodir*" [Turdimov Sh., 2020: 6], bo'lsa-da, o'zligini anglagan badiiy ijod ahlining aksariyati jadid adabiyotida kuzatilgan o'zgarishlarning yuzaga chiqishiga faol hissa qo'shishdi. Obraz tushunchasining doirasiga nainki inson va uning fikr-kechinmalari badiiy ifodasi, balki peyzaj tasviri, turli buyum - detallar, hayvonot dunyosi ham qamrab olinadi. Chunki badiiy obraz bir vaqtning o'zida ham jonli voqelik aksini, ham san'atkorning o'zligini ifodalaydi [To'ychiyeva Sh. 2008: 4].

Mumtoz adabiyotimizning eng yaxshi an'analari o'zbek jadid she'riyatiga ham asos bo'lib xizmat qildi. Jumladan, Cho'lpon she'riyatidagi "oshiq" va "yor" obrazlari badiiy talqinida bu hol yorqin namoyon bo'ladi. Shubhasiz, bu hol shoir dunyoqarashi, kamol topgan muhiti, iste'dodining tabiati, ijtimoiy hayot voqeligiga munosabat bildirish yo'sini singari ko'plab omillar bilan bog'liqlikda yuzaga chiqadi. Oshiq obrazi Cho'lpon lirikasida "*bulbul*", "*qul*", "*ko'ngil*", "*jon*", "*daraxt*" kabi poetik timsollar bilan tanosibiy munosabatda keladi va ko'pincha shoir "men"ini ifoda etadi.

Cho'lpon she'rlarida kengliklarda uchishga talpinayotgan qush timsoliga ko'p murojaat etiladi. Shoir erkka tashna, dasht-yobon kengliklari hamda dengiz haybatli to'lqinlarini sog'ingan qadim Sharqning asriy orzularini aslida ko'ngil qushi ma'nosida badiiy ifoda etadi. "Ulug' yo'lda" she'riga e'tibor qaratamiz:

Qushlar yanglig' uchaylik,
Keng cho'llardan, dengizlardan kechaylik,
Sharqning eski chigalini yechaylik! [Cho'lpon. 1991:190].

Albatta, yuqoridagi kabi ozodlik va hurlik sog'inchi qafasdagi tutqun qush – Cho'lpon, Turkiston va Sharqning she'r yozilgan davrdagi kayfiyat-holini ifoda etadi. Shoir "Ishq yo'li" she'rida erk va ozodlik haqidagi orzu-umid va sog'inchlarini "*qorong'i kecha*", "*yo'l*", "*davrvesh – yo'lchi*" obrazlari orqali ifoda etadi. She'r mazmunidan anglashiladiki: "*Bir kecha menga xuddi bir yildir*", deya o'rtanayotgan lirik qahramon g'oyat yolg'iz bo'lsa-da, u umidsizlikka tushmay olg'a intiladi.

Biroq "Raqamlik sevgi" she'rida behad cho'zilgan hijron va : "*Yuzlaring bir, ko'zlaring o'n, so'zlaring ming aldadi*" qabilida ma'shuqaning yuz, ko'z, so'zlariga aldanish hollari sodir bo'lishi lirik qahramon ko'nglida iztirob uyg'otadi. Bu o'rinda mumtoz adabiyotdagi "*raqib*" obrazi: "*O'yna, kul, guldek egil, yovlar uchun, yovlar uchun*" tarzida, ya'ni "*yovlar*" shaklida hamda ta'kidni kuchaytirish uchun takror holatda keladi. Insonlik martabasiga zid barcha noma'qul sifatlarni anglatadi.

Lirik qahramon: "*Biz yotaylik yo'llaringda yosta, tuproq qil butun*", deya ma'shuqa uchun fido bo'lishga tayyor, ishq yo'lida xokisor ekani jihatidan an'anaviy oshiqlar safida turadi. Cho'lpon to'rt unsur (*o't, suv, shamol va tufroq*) ning har birida muayyan holat, mayl va sifat mujassamligini yaxshi biladi. Shuning uchun lirik qahramon hissiyotlarini chizishda tufroqning sabr

va umid, ezgu xulq hamda muruvvat ramzi ekanidan foydalanadi. Zotan tufroq bo‘lish nainki xokisorlik, balki ulug‘lik sari intilish va kibrdan poklanish, o‘zlikni anglash hamdir. Hazrat Navoiyning: “*Ey Navoiy, o‘zni maqbul istasang tufroq bo‘l*” yoxud: “*vafo ahli erur tufroq*” kabi ta’kidlarini eslashning o‘ziyoq fikrimizni dalillaydi. Demak, lirik qahramonning istirohatni tark etib, bedorlikda iztirob chekishidan uning o‘zlikni anglash va poklanish yo‘lida ekani anglashiladi.

Qadimgi Xitoy falsafasida bir raqami – baxtsizlik ramzi. Uch raqami esa uch asosiy qudrat manbalari: (*osmon, yer va inson*) va uch yorug‘lik manbai: (*quyosh, oy, yulduz*) ni tamsil etgan [Jumaeva S. 2012: 2]. Bu jihatdan qaralganda ham, shoirning unsurlarda ma’no va mazmun ko‘rishi o‘zini oqlaydi. Qolaversa, biz “cho‘lpon” so‘zi lug‘aviy ma’nosi eng yorug‘ “tong yulduzi” ekani, shoir o‘z nigohini olislarga tikkani, fikri keng, hayolot ufqi yuksakligini unutmashimiz kerak. Yuqoridagi misollar adabiyotshunosligimizda shakllangan: “*Cho‘lpon she‘riyati to‘la ijtimoiylashgan*”, degan qarashdan bir qadar xorijga chiqishi, shoirning badiiy ifoda uslubi mumtoz an’anadan butkul uzilmaganini ko‘rsatishi jihatidan ham xarakterlidir.

Muqaddas Tojiboeva jadid adiblari ijodidagi mumtoz adabiyot an’analarini tadqiq etarkan, Hamzaning Navoiy, Munis, Amiriy, Nodira, Muqimiy, Furqat she‘riyatidagi turfa ohanglardan ta’sirlanib, ularga ergashib yozilgan ijod namunalari ham e’tibor qaratadi (3. 56). Hamzaning “Sango” radifli g‘azalidan: “*Yosh oqub ikki ko‘zumdin Nuhni to‘fonidek, / Nolayi dilso‘z ila haddin fano bo‘ldum sango*” kabi baytlarini tahlilga tortgan olimaning Alisher Navoiy g‘azaliga hamohang ekani, ayni paytda, lirik qahramonning mashuqaga bo‘lgan muhabbati, fidoiyligini tavsif etishi bilan Munis g‘azaliga ham yaqinlashishini ta’kidlaydi. Zotan, Hamzaning o‘z sevgilisi – Vatanga bo‘lgan muhabbati shu qadar kuchliki, lirik qahramon buni:

Bir jon emas, ey suyguli, tomirlarning qoni vatan,

Sensan bale, bilganlarga jonlarni jononi vatan (12.45).

tarzida izhor etadi. Anglashiladiki, Hamza mahjubani an’anaviy tarzda jonning jononasi tarzidagina tushunmaydi. Nainki jon, balki tomirlarda oqayotgan hayotbaxsh qon kabi aziz biladi va ardoqlaydi.

O‘zbek jadid she‘riyatida “kishan” obraziga ham faol murojaat qilingan. Masalan, Cho‘lponning “Qo‘zg‘olish” she‘rida “xaqir qul” o‘rnida ko‘rilgan xalq nomidan “afandi” (janob)larga murojaat qilinar ekan: “*Titra, qo‘rqim, bog‘liq quling bosh ko‘targan kuch endi!*” [Tojiboeva M. 2017:59] , deyiladi. Shoir bu dadil hayqirig‘i orqali har qanday kamsitish va xo‘rlashlarga qarshi isyon tuyg‘ulari, dard-faryodlarini ifodalaydi. Millatdoshlarini istibdod va jaholatga qarshi birlashish, qo‘zg‘alishga da’vat etadi. Demak, jafokash xalqni o‘z kuchiga ishontirish va zinhor umidsizlanmaslikka chorlovchi xalqparvar shoir sifatida namoyon bo‘ladi.

Cho‘lpon va Fitrat o‘zbek jadid adabiyotining ikki mustahkam qoyasi edi. Ulardan qay biriga ustunlik berish fikrida hatto Fitratning o‘zi ham ikkilangan. Prof. Begali Qosimov ta’kidlashicha, Fitrat: “*Barmoq vaznidagi birinchi she‘rni men yozdimmi, Cho‘lpon yozdimi – eslolmayman, ammo barmoqni nazariy jihatdan birinchi bo‘lib yoqlab chiqqanlardan men edim*” [Qosimov B. 1994: 98] – deb yozgan edi.

Darhaqiqat, zamon shiddatini ifodalashni ko‘zlagan Fitrat barmoq va sochma (mansura) larni o‘zbek folklori, turk va tatar adabiyotlaridan zamonaviy milliy she‘riyatimizga olib kirgan, nazariy jihatdan himoya qilgan ziyolilardan biri edi.

“Yurt qayg‘usi”ni aks ettirishga qulay, she‘riyatga xos nafis tuyg‘u-ohanglar ustuvorlik qiluvchi lirik nasr – mansuralar ham jahon adabiyotining faol janriga aylandi. Jumladan, Xitoy milliy adabiyoti asoschisi Lu Sinning “Yovvoyi O‘tlar” (1927), shved shoiri Artur Nilsning “Oqar suvda ko‘rganlarning”(1978) kabi she‘riy to‘plamlari lirik nasrning go‘zal namunalaridir.

Fitrat “Mening kecham” she’rida tabiat manzaralari va ijtimoiy jarayonlarni muqoyasa qilarkan, tun zulmatidan keluvchi mungli kayfiyatini ijod sha’mi va ko’ngil nurlari bilan yoritmoq-qa mayl bildiradi:

So’lg’un, qora, turg’un dema. Ko’rdim
mungli kechanning mungli chog’inda,
ko’b mungli uyimning qirog’inda
yolg’uz iki narsa yondosh-da:
biri sham’im, biri...
ko’nglim! [Fitrat.2000:44].

Fitrat badiiy izlanishlari an’anaviy she’riy tizimni yangilashga intilgani, olmon romantiklari, fransuz simvolistlari, usmonli turk, tatar va rus she’riyatining erkin she’r vaznlariga xos badiiy ifoda yo’sinlari, xususan ritmik birlik, vazn, qofiya va turoqdan xoli “verlibir”, “svobodnyy stix” (“erkin she’r”) shaklini ijodiy o’zlashtirgani guvohi bo’lamiz. O’zbek shoirlari “sarbast” deb atashgan yangi vazn birinchi navbatda, Fitratga o’zining his-tuyg’ularini obrazli ifodalash imkonini berdi. Ayni paytda, shoir poetik so’z va iboralarning o’ziga xos qurilishini ta’minlash, she’riy sintaksis va badiiy san’atlardan mahorat bilan foydalanish tajribasini ham takomillashtirdi. Mungli oniy kayfiyat uyg’otgan “so’lg’un”, “qora”, “turg’un” ijtimoiy vaziyat-holatni sha’mnining shu’lasiyu ko’ngilning harorati bilan zidlantiradi. Boshqacha aytganda, shakl unsurlarini badiiy mazmun bilan uyg’unlashtirib, emotsional ta’sirchanlikni oshirishga muvaffaq bo’ldi. Uning bu xayrli an’anasi o’zbek she’riyatida keyinchalik Oybek, Mirtemir, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Bahrom Ro’zimuhammad, Faxriyor kabi ko’plab shoirlar tomonidan ijodiy davom qildirildi.

Umuman, jadid shoirlari “*bog*”, “*gul*”, “*bulbul*” an’anaviy obrazlariga tayanib, madaniyat va ma’rifatdan yiroqlashtirilgan, qadriyatlarini toptalgan elning dardini kuylashdi. Chunki bu davr shoirlarining fikr-qarashlari umuminsoniy g’oyalar va milliy ruxiyatga vobasta edi. Lirik qahramonning jafokash va g’amzada kayfiyati, o’lka ayanchli qismati haqidagi iztirobli o’ylari ularni birlashtiradi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Afoqova N., 2006. O’zbek jadid adabiyotida she’riy shakllar taraqqiyoti tamoyillari. Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent.
2. Jumaeva S., 2012. She’riyat va raqam / Badiiy matn tahlili va talqin muammolari to’plami. – T., 112-115 b.
3. Tojiboeva M., 2017. Jadid adiblari ijodida mumtoz adabiyot an’analari. Filol. fan. d-i (DSc) ... diss. – Toshkent, 283 b.
4. Matyokubova T., Yakubov I., 2020. Laboratory works of gafur gulam: poetic image and imagery // International journal of Advanced Science and Technology. – № 6. – Pp. 28-37.
5. Turdimov Sh., 2020. Xalq qo’shiqlarida ramz. – Toshken: Fan, 192 b.
6. To’ychieva Sh., 2010. Yangi o’zbek adabiyoti va Cho’lpon ijodi. – T. : Sharq, 132 b.
7. Xudoyberdiev E., 2008. Adabiyotshunoslikka kirish, – T., 368 b.
8. Cho’lpon A., 1991. Yana oldim sozimni. – T., 1991. 574 b.
9. Cho’lpon A., 1994. Asarlar. Uch jildlik. J.1. – T.: Adabiyot va san’at, 448 b.
10. Fitrat A., 2000. Tanlangan asarlar. Besh jildlik. J1. – T.: Ma’naviyat, 2000. 256 b.
11. Qosimov B., 1994. Maslakdoshlar. – T.: .Sharq, 160 b.
12. Quronov D., 2004. Adabiyotshunoslikka kirish. – T., 228 b.
13. Niyoziy H., 1988. To’la asarlar to’plami. Besh jildlik. J.2. – T.: Fan, 564 b.

14. Yakubov I., 2017. Transformatsiya estetikeskix vzglyadov i sovremennyy uzbekskiy roman // Theoretical & Applied Science. №12. Pp. 120-125.

15. Yokubova S.I., 2022. Jadid she'riyatida peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar tasviri // O'zbekiston: til va madaniyat. – Toshkent, № 3. – B. 42-54.

16. Yokubova S.I., 2023. Jadid she'riyatida ramzlar: semiotik va germeneytik talqin // O'zbekiston: til va madaniyat. – Toshkent, № 3. – B. 79-90.

BEGALI QOSIMOV TADQIQOTLARIDA VAQTLI MATBUOT VA ADABIY JARAYON MUNOSABATLARI

Gulbahor BEKTASHEVA Rayimjonovna
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi
Andijon davlat universiteti
bahor2288@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada professor B.Qosimovning jadid matbuoti, publisistikasining taraqqiy qilishi va bu hodisalarning adabiy jarayonga tasiri masalasi yoritilgan. Ilk o'zbekcha gazeta "O'rta Osiyoning umrguzarligi" ekani qayd etilgan. Jadid matbuotining davr nuqtayi nazaridan rivojlanib borayotgani va o'lkada gazeta va jurnal o'quvchi ziyoli qatlamning shakllanib borayotganining belgisi ekanligi, jadidchilik g'oyalari matbuot yordamida atrofga yoyila boshlanishi jamiyatdagi barcha sohalarida ulkan o'zgarishlar bo'lishiga, yangiliklar yaratilishiga yo'l ochganligi e'tirof etiladi. B.Qosimov jadid adiblarining ijtimoiy-siyosiy, adabiy-estetik qarashlari xususida asosli mulohazalarni ilgari surishi uning vaqtlı matbuot nashrlarini jiddiy o'rganishi orqali mumkin bo'ladi. Vaqtlı matbuotdagi maqolalarning aksariyatida ijtimoiy fikr uyg'unligi mavjudligini "shaxsiy har qanday cheklashdan ijtimoiy adolatgacha bo'lgan masalalar adabiyotning kun tartibiga qo'yilgan"ligi bilan izohlaydi.

Davr adabiy-ma'rifiy hayotini teran anglash imkonini beruvchi 1906-yilning 6-sentabridan chiqqa boshlagan "Xurshid" gazetasi Abdulla Avloniy, Fansurullobek Xudoyorxonov, Muhammadxon Podshoxo'jaev, aka-uka Komilbek, Karimbek Norbekov kabi yoshlarni o'z atrofıga jamlagan edi. B.Qosimov "Xurshid" gazetasi siyosiy masalalar bilan ham faol shug'ullanganligiga urg'u beradi. Gazetaning 6-sonida bosilgan Behbudiyning "Xayrul umuri avsatuho" maqolasini tahlil qilar ekan, Chor hukumatining mustabid siyosati, vaqflarning tortib olinishi, madrasalarning xarob qilinishi, rus mujiklarini ko'chirib keltirish siyosati, mahalliy xalqning kambag'allashib, mulk va davlatning yahudiy hamda armanilarga qolishi butun millatning ayanchli ahvoli sifatida baholanganligini e'tirof etadi. Bunday jasorat o'sha davr uchun juda katta voqelik edi. Publisistikada jamiyatga bu tarzda siyosiy baho berilishi jadidlarning yuksak siyosiy ong va madaniyat egasi ekanini ko'rsatadi.

***Kalit so'zlar:** jadid matbuoti, milliy adabiyot, o'zbek jadid tanqidchiligi, adabiy jarayon, gazeta, jurnal, jadid publisistikasi.*

ВЗАИМОСВЯЗЬ ВРЕМЕННОЙ ПРЕССЫ И ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОЦЕССА В ИССЛЕДОВАНИЯХ БЕГАЛИ КАСИМОВА

Аннотация

В статье описывается развитие современной прессы и журналистики профессора Б.Касимова и влияние этих событий на литературный процесс. Первая узбекская газета

MUNDARIJA

I.U.MADJIDOV. ADABIY TA'LIM METODOLOGIYASI: XALQARO TAJRIBA VA ILMIY HAMKORLIK SAMARALARI (So'z b jshi o'rnida).....	3
3-шўъба. ЖАДИДЧИЛИК ТАРИХИ ВА ЖАДИД АДАБИЁТИ	
Temur Xo'ja O'g'li. GERMANIYADA TURKISTON ADABIYOTI: 1923-1944.....	7
Камолиддин ШАМСИДДИН. КУЛЬТУРНАЯ И ПОЛИТИЧЕСКАЯ ПРОГРАММА ДЖАДИДОВ ТУРКЕСТАНА.....	13
Ahat A.ANDICAN. SOVYETLER BIRLIĞI'NIN DAĞILMA DÖNEMİNDE TÜRKİYE'DEKİ TÜRKİSTAN DİASPORASININ FAALİYETLERİ.....	20
Саидахроп ҒУЛОМОВ. ЖАДИДЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ҚАРАШЛАРИ ВА ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ.....	31
Seyfettin ERŞAHİN. ÖZBEK CEDİDCİLERİN AHLÂK EĞİTİMİNE DAİR METİNLERİNİN MUHTEVA TAHLİLİ: A. AVLANI'NIN TÜRKİ GÜLİSTAN YAHUD AHLÂK ÖRNEĞİ.....	40
Yashar QOSİM. ISTIQLOL KUYCHILARI: AHMAD COVOD VA ABDULHAMİD CHO'LPAN POEZIYASI QIYOSIY-TIPOLOGİK TAHLİL KONTEKSTIDA.....	63
Filiz MELTEM. ABDULLA AVLANI'NIN TÜRKİ GÜLİSTÂN YÂHÛD AHLÂK ADLI ESERİNDEKİ İYİ HUYLAR İLE İLGİLİ ŞİİRLERİ VE BU ŞİİRLERİN İÇERİK VE DİL BAKIMINDAN İNCELENMESİ.....	73
Münevver TEKCAN. EDUCATIONAL REFORM ACTIVITIES IN TURKESTAN-UZBEK JADIDISM.....	83
Muqaddas TOJIBOYEVA. MO'MINJON TOSHQIN ASARLARIDA MA'RIFIYMASALALAR VA ULARNING BADIY TALQINI.....	91
Абдулла УЛУҒОВ ЗАМОНДОШЛАРИ ОРАСИДА ТЕНГСИЗ.....	97
Kemal ATAMAN. TÜRKİSTAN CEDİT HAREKETİNİN GLOBAL ANALİZİ.....	105
Rustam SHARIPOV. MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING SIYOSIY-HUQUQIY QARASHLARIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR ("TURKISTON MADANIY MUXTORIYATI LOYIHASI" MISOLIDA).....	110
Минхожиддин ҲОЖИМАТОВ. Ю АБДУРАУФ ФИТРАТ АСАРЛАРИДА ТАРИХИЙ ВА БАДИИЙ ҲАҚИҚАТНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ.....	118
Қидир ТЎРАЛИ. XX АСРНИНГ БОШЛАРИДА «УЙҒОНИШ» ШИОРИ ОСТИДА НАШР ЭТИЛГАН УЧ КИТОБНИНГ ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	124
Aida BABUTCU. CƏDİTÇİ VƏDUD MAHMUDUN "FÜZULİ BAĞDADİ" MƏQALƏSİ HAQQINDA.....	131
Xamidulla TADJIYEV. QOZOQ ADABIYOTIDA MA'RIFIY G'OYALARNING YANGILANISHI (XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSH LARI).....	133
Sherali QO'LDASHEV. SHARQIY TURKISTONDA JADIDCHILIK G'OYALARINI TARQALISHIDA O'ZBEK ZIYOLILARINING ISHTIROKI.....	139
Раҳматулла БАРАКАЕВ. АБДУЛЛА АВЛОНИЙ АСАРЛАРИДА ОНА-БАТАН МАВЗУИ.....	144
Xurshida JALILOVA. MA'RIFATCHILIK ADABIYOTIDA SAYOHATNOMA JANRINING POETIKASI (INGLIZ VA O'ZBEK MA'RIFATCHILIGI ADABIYOTI ASOSIDA).....	150

Shahlo HOJIYEVA. CHO‘LPON IJODIGA TURK ADABIYOTI TA‘SIRI.....	157
Гулбахар ТОҚИМБЕТОВА. XIX АСР ОХИРИ XX АСР БОШИДАГИ ҚОРАҚАЛПОҚ АДАБИЁТИДА ЛИРИК ЖАНРЛАР.....	163
Manzura JO‘RAYEVA. CHO‘LPON IJODIDA SAFARNOMA JANRINING KO‘RINISHLARI.....	169
Ulug‘murod AMONOV. ABDURAUF FITRAT XALQ QO‘SHIQLARI HAQIDA.....	176
Hulkaroy BOLTABOYEVA. ERSO‘Y VA FITRAT ASARLARIDA MA‘RIFATGA NAJOT YO‘LI SIFATIDA QARALISHI.....	181
Abduvali YO‘LDASHEV. MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOV VA TURKISTON YOSHLARI.....	190
Uktamjon ORTIKOV. THE RELEVANCE OF JADIDISM ON UZBEKISTAN TODAY.....	195
Нургуль САЙЛАУБАЕВА. ПРЕДСТАВИТЕЛЬСТВО НАСЕЛЕНИЯ СТЕПНОГО КРАЯ В ГОСУДАРСТВЕННОЙ ДУМЕ РОССИИ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА.....	201
Shamsiyo BOLTABOYEVA. O‘ZBYEK JADID MATBUOTIDA “HURRIYAT” GAZETASINING KONTENT XUSUSIYATLARI.....	208
Sitora SHIRINOVA ISMOILBEK GASPRALINING NASRIY ASARLARIDA AYOLLAR OBRAZI.....	219
Sabogul SUYUNOVA. MUNAVVAR QORI VA FITRATNING O‘ZBEK TILINING MORFOLOGIYASIGA OID QARASHLARI.....	223
Sevinchoy YOQUBOVA. O‘ZBEK JADID SHE‘RIYATIDA POETIK OBRAZLARINING IJTIMOIIY-ESTETIK VAZIFALARI.....	229
Gulbahor BEKTASHEVA. BEGALI QOSIMOV TADQIQOTLARIDA VAQTLI MATBUOT VA ADABIY JARAYON MUNOSABATLARI.....	235
4-шўъба. BADIY MATN TAHLILI VA TALQINI	
Bədirxan ƏHMADLI. SİRACƏDDİN SƏYYİDİN POETİK DÜNYASI.....	241
Salidə ŞƏRİFOVA. ÇAĞDAŞ TÜRK ŞEİRİNİN NÜMAYƏNDƏSİ – BÜLƏND ECEVİTİN BƏDİİ YARADICILIĞINA BİR NƏZƏR.....	247
Қозоқбой ЙЎЛДОШ. ЎЗГАЛАР ОҲАНГИДАГИ ЎЗЛИК МОҲИЯТИ.....	260
Islamjon YAKUBOV. “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANIDA KINOYAVIY-SATIRIK IFODA USLUBI.....	268
Mənzər NİYARLI. SALİDƏ ŞƏMMƏDQIZININ (ŞƏRİFOVA) KİÇİK NƏSRİNDƏ BƏDİİ REFLEKSİYA.....	276
Улуғбек ҲАМДАМОВ. ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК АДАБИЁТИГА УМУМИЙ БИР НАЗАР.....	289
Ravshanbek MAHMUDOV. TO‘RA SULAYMON IJODINING INSON KAMOLOTIDAGI AHAMIYATI.....	296
Bahor TO‘RAYEVA. ULUG‘BEK HAMDAM VA NORMUROD NORQOBILOV ROMANLARIDA BADIY MAKONNING POETIK IFODASI.....	306
Tozagul MATYOQUBOVA. G‘AFUR G‘ULOM SHE‘RIYATIDA LIRIK QAHRAMON RUHIY KECHINMALARI TASVIRI.....	312
Hənifə SƏLİFOVA. ŞƏRİF AĞAYARIN HEKAYƏLƏRİNDƏ BƏDİİ VASİTƏLƏRİN ESTETİK RƏNGARƏNGLİYİ.....	318
Dilfuza TAJIBAEVA. XX ASRNING OXIRI O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA RANG TASVIRI IFODASI.....	324

Salima JUMAYEVA. IKROM OTAMUROD DOSTONLARIDAGI POETIK ASOSNING HAYOTIY VA FALSAFIY TALQINLARI	332
Şahnaz SƏFİBƏYLİ. ZÜLFİYYƏ POEZİYASINDA AZƏRBAYCAN MÖVZUSU	340
Nadira MATMUSAYEVA. SHODAT ISAXONOVA IJODIDA AYOL RUHIY OLAMINING TASVIRI	343
Нилуфархон ЮЛДАШЕВА. АВТОРСКОЕ «Я» В РАССКАЗЕ «ИСТОРИЯ С ВАРИАЦИЯМИ» ИЛЬДАРА АБУЗЯРОВА	349
Nodira XOLIKOVA. CHO‘LPONNING “O‘ZBEK QIZI” OBRAZIDA TURKISTON FOJEIY QIYOFASI TASVIRI	356
Guljahan SEITNAZAROVA. OCHERKNAVIS MAHORATI: OCHERKDA JANR, MAVZU, G‘OYA VA OBRAZ YAXLIDLIGI	363
Odil YOQUBOV. OYBEK SHE‘RIYATIDA LIRIK QAHRAMON RUHIY KECHINMALARI TASVIRI	368
5-sho‘ba. ADABIY ASARNING LISONIY VA USLUBIY TAHLILI	
Yusuf AVCI, Fatih KANA, Arda KÖROĞLU. TÜRK DÜNYASINDA DİL BİLGİSİ ÖĞRETİMİ: TÜRKİYE VE ÖZBEKİSTANDAKİ ANA DİLİ DERS KİTAPLARININ İÇERİK BAKIMINDAN KARŞILAŞTIRMASI	374
Selahitdin TO‘LQIN. GENEL TÜRKÇEDE İSİM ÇEKİM EKLERİNİN KULLANIMINDA GÖRÜLEN İSTISNAI DURUMLAR	376
Xolida ALIMOVA. MIRZO MEHDIXONNING “MABONIY-L-LUG‘AT” ASARIDA MORFEMALAR TAHLILI	382
Махмуд РАВШАНОВ. АНТРОМОРФНОСТЬ МЕТАФОРЫ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЫ МИРА	390
Gulchehra KELDIYOROVA. ALLYUZIYA MATN EKSPRESSIVLIGINI YARATUVCHI VOSITA SIFATIDA	395
Alisher UBAYDULLAYEV. BARQAROR BIRIKMALARNING BADIY MATNDAGI O‘RNI	402
Nafisa YUSUPOVA. FORS TILIDAGI GAPIRUV-IFODALOV FE‘LLARINING LEKSIK-SEMANTİK TAHLILI	409
Mirzəli MƏLEYKƏ. XƏZƏR XAQANLIĞI VƏ XƏZƏR DİLİ	417
F.FAIZOVA. ISM MADANIYATI BELGI ELEMENTI SOFATIDA	425
Kumushoy QURBANOVA. XIVALIK JADID MULLA BEKJON RAHMON IJODIDA TIL VA IMLO MASALALARI	431
Ozoda SHARİPOVA. “VATAN” KONSEPTI KOMPONENTLI PAREMALARDA BIONİMİK KO‘CHIM VA O‘XSHATISHLAR SEMANTİKASI	436
Mahliyo XOLMO‘MINOVA. VATAN KONSEPTINING REALIYALAR BILAN BOG‘LIQLIGI	441
Shahnoza NAZAROVA. JAHON TILSHUNOSLIGIDA NUTQIY ETIKET (“POLİTENESS”)NING İLMİY-NAZARİY ASOSLARI VA TAMOYİLLARI	446
Наргизахон ВАЛИЕВА. ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЗЫ ХАЛЛЕДА ХОССЕЙНИ (НА МАТЕРИАЛЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «БЕГУЩИЙ ЗА ВЕТРОМ»)	452
Гулнара АКЫЛБЕКОВА. ЛИНГВОМАДАНИЯТТАГЫ ОБЪЕКТИВДЕШТИРИЛГЕН «ТАБУ» КОНЦЕПТИ	458

Nigora BAFOYEVA. ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA MAVJUD TAXALLUSLAR VA ULARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI.....	464
--	-----

6-sho‘ba. OLIY TA’LIM TIZIMIDA FILOLOGIK FANLARNI O‘QITISH MASALALARI / XORIJIY TAJRIBA VA HAMKORLIK

Almaz ÜLVİ BİNNATOVA. AZƏRBAYCAN ELMININ DOSTLARI: PROFESSOR HƏMİDULLA BOLTABAYEV.....	470
Qunduzxon HUSANBOYEVA. ADABIY TA’LIM SAMARADORLIGINI TA’MINLASHDA SAVOL VA TOPSHIRIQLARNING AHAMIYATI.....	478
Maxliyo UMAROVA. ĞARB VA SHARQ DRAMATURGIYASI XX ASR BOSHLARIDA.....	484
Исомиддин ЁРМАТОВ. ТАЛАБАЛАР ОНГИГА МТТ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИ НУТҚИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА ЎСТИРИШ КЎНИКМАЛАРИНИ СИНГДИРИШ МУАММОЛАРИ.....	490
Дилдорахон АБДУЛЛАЕВА. ЧЎЛПОН ГОГОЛ ТАРЖИМОНИ.....	496
Eshnazar JABBOROV. SHARQ MA’RIFIY ADABIYOTINING MOHIYATI.....	505
Amonkeldi AXMATOV. BUXORO VA OZARBAYJON ADABIY ALOQALARI TARIXIDAN.....	510
Surayyo DO‘STOVA. “ЭСКИ ЎЗБЕК ЁЗУВИ”ДА җ җ җ җ (JIM, CHIM, HOYI HUTTIY, XE) HARFLARINI O‘RGATISHDA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	515
Aisafar MURTAZAYEVA. KASBGA OID TERMINLARNI O‘RGANISHDA TIZIMLI YONDASHUVNING AHAMIYATI.....	520
Gulchiroy MUHIDDINOVA. YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISH METODLARI.....	523
Zulayho NEGMATOVA. IJODIY TASAVVURNI SHAKLLANTIRISHDA SINFDAN TASHQARI O‘QISHNING TARBIVAVIY IMKONIYATLARI.....	527
Ганжина ЮНУСОВА. ЗАМОНАВИЙ АМЕРИКА РОМАНЛАРИДА ЙЎЛ ХРОНОТОПИНИНГ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК ФУНКЦИЯСИ.....	531
Jupargul KANIYAZOVA. SEYTOVTIŃ «QASHQIŃ» HÁM SH.AYTMATOVTIŃ «DÁSLEPKI MUĜALLIM» POVESTLERINDE OBRAZLAR TIPOLOGIYASI.....	535
Ayjamal MATENOVA. INGLIZ, RUS VA O‘ZBEK TILLARIDA LAKUNALAR XOLID HUSSEINI ASARLARIDA.....	543
Markhabo IBROKHIMOVA. INTEGRATING PHILOLOGICAL STUDIES INTO THE HIGH SCHOOL CURRICULUM.....	547
Nilufar MUXAMMEDOVA. LOTIN AMERIKA ADABIYOTDA MO‘JIZAVIY REALISM TALQINI.....	552
Iqbola QODIRJONOVA. JAHON VA AMERIKA ADABIYOTIDA YETIM BOLA OBRAZINING TADRIJIY TAKOMILI.....	556
Dinora YUSUPOVA. SHARQ XALQLARI FOLKLORI HAMDA SIYOVUSH KASROIY SHE’RIYATIDA “TOG‘” OBRAZINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TADQIQI.....	560
Rayxon NAZAROVA. TARIX VA MIF: XILARI MANTEL ROMANLARIDA O‘TMISH TASVIRI.....	566

Ilmiy nashr

**“ADABIY TA’LIM METODOLOGIYASI: XALQARO
TAJRIBA VA ILMIY HAMKORLIK”
mavzusidagi Professor Hamidulla Boltaboyev
tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

MATERIALLARI

2-kitob

« MASHHUR PRESS» nashriyoti

Bosishga ruxsat etildi 27.09.2024
Qog‘oz bichimi A4. Ofset qog‘ozi.
Times New Roman garniturasini. Hisob-nashriyot tabog‘i 32,0.
Shartli bosma tabog‘i 37,5. Adadi 200
Bahosi kelishilgan narxda

«MUMTOZ SO‘Z»
oilaviy korxonaning
matbaa bo‘limida chop etildi.
Manzil: Toshkent, Beshqayrag‘och ko‘chasi, 156 uy.
Tel.: 99 847-12-12